



ON THE ACTIVITIES OF THE PRESS ORGANS OF THE UZBEKS OF AFGHANISTAN (SECOND HALF OF THE 20TH CENTURY – BEGINNING OF THE 21ST CENTURY)

Usarov Khusniddin Dusmamatovich

Senior Lecturer, Department of

“National Idea, Fundamentals of Spirituality and Law”,

Navoi State University

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21473496>

ARTICLE INFO

Received: 02nd July 2026

Accepted: 04th July 2026

Online: 05th July 2026

KEYWORDS

Afghan Uzbeks, press,
mass media, Uzbek
language, Yulduz
newspaper, Oydin
magazine, national
identity, Constitution,
newspaper, magazine.

ABSTRACT

This article examines the activities of the press and mass media of the Uzbek population in Afghanistan during the second half of the twentieth century and the beginning of the twenty-first century. The study analyzes the legal status of the Uzbek language, the development of the national press, and the role of newspapers and magazines such as Yulduz, Gurash, Islam Ovozi, Oydin, and Ezgu Tuygu. It highlights their contribution to preserving national identity, promoting the Uzbek language, and disseminating cultural heritage. The historical development of the Afghan Uzbek press and its significance in social and cultural life are also discussed.

О ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ОРГАНОВ ПЕЧАТИ УЗБЕКОВ АФГАНИСТАНА (ВТОРАЯ ПОЛОВИНА XX – НАЧАЛО XXI ВЕКА)

Усаров Хусниддин Дусмаматович

Старший преподаватель кафедры

«Национальная идея, основы духовности и право»

Навоийского государственного университета

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21473496>

ARTICLE INFO

Received: 02nd July 2026

Accepted: 04th July 2026

Online: 05th July 2026

KEYWORDS

Узбеки Афганистана,
пресса, средства
массовой информации,
узбекский язык, газета
«Юлдуз», журнал
«Ойдин», национальная
идентичность,
Конституция, газета,
журнал.

ABSTRACT

В данной статье анализируется деятельность печатных органов и средств массовой информации узбеков Афганистана во второй половине XX – начале XXI века. Рассматриваются правовой статус узбекского языка в Афганистане, процесс становления национальной прессы, деятельность газет и журналов «Юлдуз», «Гураш», «Голос ислама», «Ойдин», «Эзгу туйгу», а также их роль в сохранении национальной идентичности, развитии родного языка и популяризации культурного наследия. Особое внимание уделяется этапам развития узбекской прессы Афганистана и её значению в общественной жизни страны.

AFG'ONISTON O'ZBEKLARI MATBUOT ORGANLARI FAOLIYATI HAQIDA



(XX ASR II YARMI-XXI ASR BOSH LARI)

Usarov Xusniddin Dusmamatovich

NavDU, "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq" kafedrası katta o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21473496>

ARTICLE INFO

Received: 02nd July 2026

Accepted: 04th July 2026

Online: 05th July 2026

KEYWORDS

Afg'oniston o'zbeklari, matbuot, ommaviy axborot vositalari, o'zbek tili, Yulduz gazetasi, Oydin jurnali, milliy o'zlik, Konstitutsiya, gazeta, jurnal.

ABSTRACT

Mazkur maqolada Afg'oniston o'zbeklarining matbuot organlari va ommaviy axborot vositalari faoliyati XX asrning ikkinchi yarmi hamda XXI asr boshlari misolida tahlil qilingan. Tadqiqotda Afg'onistonda o'zbek tilining huquqiy maqomi, milliy matbuotning shakllanish jarayoni, "Yulduz", "Gurash", "Islom ovozi", "Oydin", "Ezgu tuyg'u" kabi gazeta va jurnallarning faoliyati hamda ularning milliy o'zlikni saqlash, ona tilini rivojlantirish va madaniy merosni targ'ib etishdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, Afg'oniston o'zbeklari matbuotining tarixiy taraqqiyot bosqichlari va uning jamiyat hayotidagi ahamiyati ochib berilgan.

O'zbekiston tarixining barcha jabhalari chuqur tadqiq etilayotgan bir davrda aslida mushtarak tarixga ega qo'shni davlatlarda yashayotgan o'zbeklar o'tmishiga ham ushbu tarixning hali to'liq yechimini topmagan ajralmas bir qismi sifatida qaralmog'i kerak. Jumladan, qo'shni Afg'oniston hududida yashovchi millionlab o'zbeklar tarixi ham xususan, ularning yagona tarixiy o'zandan ajralgan so'nggi bir. bir yarim asrlik o'tmishi ancha mavhum holatda va uni o'rganish muhim tarixiy dolzarblik kasb etadi. Ushbu maqolada Afg'onistondagi o'zbek matbuoti va ommaviy axborot vositalarining XX asr 2-yarmidan XXI asr boshlarigacha bo'lgan davrdagi faoliyati tarixi tahlil etilgan.

Ma'lumki, Afg'oniston aholisi milliy tarkibiga ko'ra xilma-xildir. Mamlakat hududida pushtunlar, tojiklar, o'zbeklar, turkmanlar, hazoralar, belujlar kabi

yigirmadan ortiq millat va elatlar yashaydi. O'zbeklar boshqa turkiy tilli xalqlar (turkmanlar, qirg'izlar, qozoqlar va b.) bilan birga zamonaviy Afg'onistonning asosan shimoliy viloyatlarida qadimgi davrlardan beri yashab kelmoqda.¹ Bu kabi murakkab etnik turfa xillik sharoitida Afg'onistondagi o'zbeklar ham o'zining milliylik xususiyatlarini, urf-odat, an'ana va qadriyatlarini, shuningdek, milliy ona tili hisoblangan o'zbek tilini asrab-avaylash orqali milliy qiyofalarini saqlash harakatida bo'ldilar.

Umuman olganda milliy tilni asrashning eng muhim shartlari tilni davlat tili darajasiga chiqarib, qonuniylashtirish shuningdek, ta'lim tizimi adabiyotda keng qo'llash bilan birga nashriyotlar, matbuot, gazeta, jurnal, televideniya, radioeshittirishlar

¹ Усманов А. Некоторые сведения об узбеках Афганистана. Central Asiatic Journal. Vol. 19. No 3 (1975) P 220-226



kabi xalqning ijtimoiy-madaniy hayotida keng qo'llanilishi hisoblanadi.

XX asrning 60-yillarida Afg'onistonda yangi islohatlar davri boshlandi. Jumladan, 1964-yil qabul qilingan Konstitutsiya Afg'onistonda bir muncha liberal xususiyatga ega bo'lib, demokratik islohatlarga yo'l ochdi. Bu esa jamiyatda turli ijtimoiy, siyosiy-huquqiy qarashlar o'sishiga, aholining faol qatlamlari o'rtasida hamda o'zligini saqlash harakatidagi millatdoshlarni birlashtirgan milliy uyushma, jamiyat va tashkilotlar yashirin yoki ochiq ko'rinishda tashkil etilishiga olib keldi.

Tadqiqotchi X.Alimovanning ma'lumotlariga ko'ra, mustaqil Afg'oniston tarixida qabul qilingan 8 ta (ba'zi manbalarda 10 ta) Konstitutsiyadan 1980-yil Afg'oniston Demokratik Respublikasi tomonidan Babrak Kormal rahbarligida qabul qilingan beshinchi Konstitutsiyaning 40-moddasida davlat tili masalasi quyidagicha ifodalangan: "Revolutsion Kengashning qonunlari va farmonlari pashtu va dariy tillarida chop qilinadi va ularni Afg'onistonning boshqa xalqlari tillarida nashr etish mumkin." Ko'ramizki, bu yerda rasmiy hujjatlar pashtu va dariy tillarida qabul qilinishi ta'kidlansada, Afg'onistonda mavjud boshqa xalqlar tillariga o'girilib nashr etilishi mumkinligi aytilmoqda (shu jumladan o'zbek tilida ham).² Bu vaqtga kelib mamalakatda yashovchi boshqa millatlar tillarida ham rasmiy nashrlar faoliyat yurita boshlagan edi. Konstitutsiya moddasining bu tarzda

talqin etilishidan maqsad rasmiy e'lon qilingan hujjatlar mazmunini ushbu nashrlar orqali barcha xalqlarga yetkazib borish ko'zlangan deyishimiz mumkin.

Aksariyat aholi o'zbek, turkman, pashayi, nuristoniy, baluj va pomiriy tillarida so'zlovchi rayonlarda, o'sha til pashtu va dariy tillari bilan bir qatorda uchinchi rasmiy tildir va uning tatbiqi qonun orqali tartibga solinadi.

Davlat Afg'onistondagi barcha tillarni mustahkamlash va rivojlantirishga qaratilgan samarali dasturlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi.

Mamalakatdagi barcha tillarda matbuot nashri va ommaviy axborot vositalari erkindir.

Mamalakatdagi mavjud ilmiy va milliy ma'muriy terminlar saqlanib qoladi."³

Ushbu moddaga ko'ra, pashtu va dariy tillariga rasmiy davlat tili maqomi berilgan. Shuningdek, o'zbek, turkman, pashayi, nuristoniy, baluj va pomiriy tillarida so'zlashuvchi aholi zich yashaydigan mintaqalarda qayd etilgan tillar ham uchinchi rasmiy til maqomida ekanligi qonuniylashtirilgan. Ushbu tillarning rivojlanishi uchun davlat mas'ul bo'lib, dastur ishlab chiqilishi, shuningdek, matbuot nashri va ommaviy axborot vositalari uchun ham hech qanday cheklovlar yo'qligi belgilangan.

Ma'lum bir tilning jamiyatdagi nufuzi va barqarorligini ta'minlovchi omillardan yana biri bu matbuot hisoblanadi. 1978-yil aprel voqealaridan

² Alimova X. Afg'oniston Konstitutsiyalarida davlat tili maqomi O'zbek sharqshunosligi buguni va ertam (Ilmuy maqolalar to'plami) Toshkent 2020-B. 22-29.

³ Alimova X. Afg'oniston Konstitutsiyalarida davlat tili maqomi // O'zbek sharqshunosligi buguni va ertasi (Ilmuy maqolalar to'plami) Toshkent, 2020-B 22-29.



21 kun keyin Mozori-Sharif viloyatining markazi Balx shahrida Abdulloh Ruyin muharrirligida o'zbek tilida "Yulduz" gazetasi chop etildi (Ba'zi manbalarda "Yulduz" gazetasi Kobulda tashkil etilgan va shimolga yetkazib berishning murakkabligi bois Mozori-Sharifga ko'chirilgan, asoschisi Afg'onistonning sobiq adliya vaziri va bosh prokurori professor Abdulhakim Shar'iy Juzjoniylar hisoblanadi.⁴ Gazeta dastlab, Muhammad Amin Uchqun so'ngra Oyxon Bayoniy va Abdulloh Ruyinlar tomonidan boshqarilgan⁵). "Yulduz" gazetasi hazrat Alisher Navoiyning "Odamiy ersang demagil odami, onikim yo'q xalq g'amidin g'ami" misralari shiori ostida nashr qilingan. Gazeta 7300 nusxada (boshqa manbalarda oyiga tiraji uch yuz dona⁶) chop etilib, sahifalarida Navoiy, Bobur, Mashrab, Nodira, Uvaysiy, Anbar Otin singari o'zbek klassik adabiyoti namoyondalarining asarlari bilan birga G'afur G'ulom, Oybek, Pirimqul Qodirov, Odil Yoqubov, Orif Usmon kabilarning asarlaridan namunalar berib borilgan.

"Yulduz" gazetasi bilan birga turkman tilida "Gurash" ("Kurash") gazetasi (Boshqa manbalarda dastlab, "Yulduz" gazetasining 1978-yilda Kobulda chiqqan to'rt-besh sonining to'rt sahifasi o'zbek, to'rt sahifasi esa turkman tilida bo'lib, Mozori-Sharifga ko'chirilgach turkman tilidagi sahifalari

alohida "Gurash" nomi bilan chiqa boshlagan⁷) ham chop etilgan. "Yulduz" va "Gurash" gazetalari Afg'onistonning o'zbeklar yashaydigan 10 ta viloyatiga tarqatilgan.⁸

90-yillarda ham bir qancha o'zbek tilidagi gazetalar nashr etildi. Jumladan, Afg'oniston Milliy Islomiy Harakati Oliy Kengashining matbuot organi "Islom ovozi" ("Nedoy-e Islom") gazetasi 1992-yildan Mozori-Sharif shahrida nashr etila boshlagan, "Yo'l" ("Rox") gazetasi Balx viloyati Yozuvchilar uyushmasi matbuot organi, 1995-yil mart oyidan Mozori-Sharif shahrida nashr etila boshlagan, "Muqaddas yer" ("Xaram") kundalik gazetasi Afg'oniston Islomiy Birlik Partiyasi matbuot organi 1993-yildan Shibirg'on shahrida nashr etila boshlagan, "Tohariston" gazetasi Toliqonda, "Qunduz" gazetasi Qunduzda, "Bidar" ("Uyg'onish") gazetasi

Balxda nashr etilgan. Ularning har birining tiraji ming nusxadan oshadi. Ularda Afg'onistonning shimoliy viloyatlaridagi o'zbek shoir va yozuvchilarining ijod namunalari muntazam bosilib chiqqan.⁹

Turkiy tilli yoshlarning "Oydin" uyushmasi matbuot nashri "Oydin" jurnali rangli tasviriy shaklda, asosan o'zbek tilida Kobul shahrida nashr etiladigan qirq betdan iborat jurnal hisoblanadi. Tiraji ming ikki ming dona. Jurnalning Mozori-Sharif, Saripul, Tahor,

⁴ Nazarov N. Afg'oniston o'zbeklari Toshkent, 2011.-B. 48-49.

⁵ Muhammad Yasin Eldash. Afg'onistonda o'zbek tili va adabiyotining o'tinishi va bugungi ahvoli // hup.cidanh123.blogfa.com/pos

⁶ Nazarov N. Afg'oniston o'zbeklari Toshkent, 2011.-B. 49

⁷ O'sha asar-B. 48-49.

⁸ Hayitov Sh.A. O'zbek muhojirligi tarixi (1917-1991 yy.).-Toshkent. ABU MATBUOT KONSALT.-2008 B.143-144

⁹ Лаветин Ю.П. Ресурсный потенциал Северного Афганистана, консолидация этнических меньшинств и укрепление элит в этом регионе М. 2000-C22-23



Shibirg'on, Maymana viloyatlari nashrlari ham mavjud-ki, bular Turkiyada tahsil olib kelgan yoshlar tashabbusi asosida nashr etilgan.

"Oydin-Afg'oniston" oylik gazetasi Kobulda o'zbek tilida nashr etilgan. Xususiy nashr bo'lib, tiraji ming dona hisoblangan.

"Bobur" jamg'armasining nashri hisoblangan "Ezgu tuyg'u" gazetasi 2000-yildan Shibirg'on shahrida nashr etila boshlagan. Ming dona tirajga ega, sakkiz sahifalik, o'zbek tilidagi gazeta edi.

"Gunash" jurnali turkman tilida bo'lib, har oyda nashr etilgan. Tiraji ikki ming dona bo'lgan.¹⁰

O'zbekistonda tahsil olayotgan afg'onistonlik talaba Muhammad Yasin Eldash ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatning shimoliy viloyatlarida o'zbek tilida bosiladigan "Yog'du", "To'g'ri yo'l", "Quyosh" nomli yana bir qancha gazeta va jurnallar hamda fors tilida chiqadigan "Andisha" nashri o'z o'quvchilari qo'lga yetib borgan. Afg'onistonlik nufuzli o'zbeklardan Abdurashid Do'stim rahbarligida tuzilgan, a'zolari asosan o'zbeklardan iborat bo'lgan, "Afg'oniston Milliy

Islomiy Junbishi" harbiy-siyosiy partiyasining markaziy nashri "Nidoyi Islom" va "Armug'on" hamda "Faryob" va "Javzijonon" gazetalarida ham fors tilidagi nashrlar yonida o'zbek tilida yozilgan maqolalar va she'rlar ham nashr etilgan. Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, Yuqoridagi tahlil va ma'lumotlardan ko'ramizki, afg'on o'zbekalari milliy tilning nufuzi uchun doimiy kurashdi va ma'lum yutuqlarga erisha oldi. Jumladan, XX asrning 60-yillaridan boshlab, Afg'oniston o'zbeklari hayotida ijtimoiy faollik kuchayib, turli jamiyat va uyishmalarga birlashish jarayoni boshladi. 1978-yil aprel (savr) voqealaridan so'ng o'zbek tilida asosan gazeta va jurnallar, radioeshittirishlar, o'zbek jamiyatlari faoliyat yurita boshlagan bo'lsa, XXI asr boshlarida Afg'onistonda rasmiy til sifatida yangi Konstitutsiyada o'z ifodasini topdi. Shuningdek, afg'on o'zbekalari hayotida ijtimoiy-madaniy jihatdan yangi davr boshlanib, ko'plab ommaviy axborot vositalari xususan, o'zbek tilidagi teledasturlar va telekanallar tashkil etildi.

¹⁰ Nazarov N Afg'oniston o'zbeklari Toshkent 2011-B. 49.